

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.I.Tuychiyev</b>	
Uzluksiz ta'lif jarayonida o'quvchilarda intizomlik munosabatini shakllantirish .....	119
<b>R.K.Boyqo'zieva</b>	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .....	122
<b>U.L.Kuchkarov</b>	
5-7 Yoshli gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.....	126
<b>N.A.Niyazova</b>	
Smart-jamiyatga o'tish kontekstida ta'lifni axborotlashtirishning zamonaviy ilg'or pedagogik xamkorligi .....	130
<b>S.O'.Boybo'riyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari.....	137
<b>N.S.Qanoatova</b>	
Talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'lif olishining nazariy-pedagogik asoslari .....	141
<b>O.M.Karimov</b>	
O'quvchilarda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	146
<b>S.A.Qo'chqorov</b>	
Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik elementlari vositasida talabalarni harbiy xizmatga tayyorlashda vatanga fidoiylik tushunchalarini singdirishning dolzarbligi .....	151
<b>I.A.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili .....	156
<b>Sh.Mo'minov, T.Mo'minov</b>	
Notiqlik va vatanparvarlik uyg'unligining lingvokulturopedagogik tadqiqi .....	161
<b>B.X.Baydjanov, N.X.Quziyeva</b>	
Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari .....	164
<b>D.O'.Yusupova</b>	
Chet tili o'qitishning modellari xaqida.....	168
<b>A.I.Soyibnazarov</b>	
O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatları va ularni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari .....	172
<b>A.M.Toshpo'latov</b>	
Yoshlarni xarbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi .....	177
<b>Sh.X.Azamov</b>	
Zamonaviy ta'lif jarayonida loyihalash faoliyatini tashkil etish .....	183
<b>A.Tadjibaeva</b>	
Ta'lif jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lif olishni ta'minlash omili sifatida .....	187
<b>F.V.Xalilov</b>	
Talabalar mustaqil ta'limininig bugungi holati va uni samarali tashkil etishda didaktik vositalardan foydalanish.....	194
<b>M.M.Kataeva</b>	
Ta'lif jarayonida mobil ta'larning tahlili va tavsiyalar .....	198
<b>E.K.Muxtarov</b>	
Ikki o'lchamli potensial o'rada zarrachaning kvant holatini modellashtirish .....	203
<b>M.M.Tojiboyev, D.S.Yunusova, M.R.Xursantova</b>	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi .....	208
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	212
<b>B.X.Baydjanov, Sh.I.Xolmatova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlarni ifodali o'qishga o'rgatish texnologiyalari .....	220
<b>A.U.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	224

**BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING SPORT TURIZMIGA  
TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗКУЛЬТУРЫ К  
СПОРТИВНОМУ ТУРИЗМУ**

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE PREPARATION OF FUTURE PHYSICAL  
EDUCATION TEACHERS FOR SPORTS TOURISM**

**G'ofurov Azizbek Umarjonovich<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>G'ofurov Azizbek Umarjonovich**

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarin sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari, jamiyatagi turli islohotlarni rivojlantirish to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье описаны особенности подготовки будущих учителей физической культуры к спортивному туризму, мнения о развитии различных реформ в обществе.*

**Abstract**

*This article describes the peculiarities of training future physical education teachers for sports tourism, opinions on the development of various reforms in society.*

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-iqtisodiy, mustaqil ta'llim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta'llim, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, innovasion va raqamli, ta'llim standartlari, Ta'llim va tarbiya, ilmiy-metodik.

**Ключевые слова:** социально-экономическое, самостоятельное образование, современное мировоззрение, социальная необходимость, непрерывное образование, учителя физической культуры, инновационные и цифровые, образовательные стандарты, образование и обучение, научно-методические.

**Key words:** socio-economic, independent education, modern outlook, social necessity, continuous education, physical education teachers, innovative and digital, educational standards, Education and training, scientific-methodical.

**KIRISH**

Bugungi kunda zamonaviy shaxs tushunchasi hamda jamiyatda shaxsnинг faoliigi to'g'risidagi fikrlar bahsli munozaraga aylanmoqda. Ijtimoiy- madaniy jarayonlarda shaxs erkinligi chegaralanganligi zamonaviy odam tushunchasini rad etib, u «agar u sayohat jarayonlarni boshidan o'tkazmasa» o'zining «zamonning o'zgaruvchan individu» sifatida tasavvur qila olmaydi.[1] Bu esa zamonaviy shaxs tushunchasiga umuman mos kelmaydigan asosdir. Insonning sayyoh sifatida o'z manzilini ma'lum muddat tark etishi, insonning dunyo bo'ylab amaliy faoliyati uning ongi, intellektual, estetik, ijtimoiy-madaniy qarashlari o'zgarishini ta'minlaydi.

Turli jamiyat boshqaruvi davrlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barqaror rivojlanishi uchun shaxsnинг burchi va majburiyatlarini bajarishi, uning intellektual salohiyati, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish kabi omillar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu borada davlat va jamiyat hayotining yuqori sifatini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan sohalar asosiy rol o'ynay boshlaydi. Bu borada B.Fouller turizm madaniyatining muhim omillardan biri – bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va zamonaviy faoliyatni tashkil etilganligini quyidagi omillar bilan izohlaydi:[2:17]

–globallashuv natijasida dunyo eklektik makonga aylandi;

–ilmiy-texnika inqilobi aloqa vositalarini rivojlantirdi, ular esa odamlar va hududlar o'tasidagi ijtimoiy-madaniy, siyosiy chegaralarni qisqartirdi, bu jarayonlar informasion madaniyatga ehtiyojni oshirdi.

–«madaniyat iste'mol»i tushunchasi, bo'sh vaqtning yangi yo'nalishlari va undan foydalanish etikasi shakllandi;

–turizmning keng faoliyat turiga aylanishi bo'sh vaqt ni chet elda o'tkazish odatlarini vujudga keltirdi.

Turizm madaniyatida ijtimoiy tuzum, ommaviy axborot vositalari, yangi texnologiyalarning rivojlanishi bo'sh vaqtning mazmuni, harakatchanlik, amaliyot, faoliyat bilan izohlanadigan

## PEDAGOGIKA

tushunchadir. Bundan tashqari, jamiyatda shaxsning ichki rivojlanish omillari va shaxslararo o'zaro ta'sir, madaniyatlararo muloqot, murakkab iqtisodiy va sosiomadaniy fenomendir.[3:20] Jamiyatning o'zgarib borishi natijasida intellektual va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan yangi turizm madaniyatiga ega shaxs shakllana boshladi, deb aytishimiz mumkin. Iqtisodiy faoliyatning ustuvorligi tovarlarni ishlab chiqarishdan xizmatlar sohasi hisoblangan turizm sohasiga o'tdi, bu esa samaradorlik va o'sish manbalari, ma'lumot va bilimlarning to'planishida namoyon bo'ladi. Turizm - madaniyatlar almashinuvi inson bilimlarini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan gnoseologik yo'nalish hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari va boshqa etnoslar haqida ma'lumot va bilimlarni toplash, ulardan bahra olish turizm madaniyatining gnoseologik funksiyasini namoyon etadi.

Bugungi kunda turizm inson dunyoqarashini kengaytiruvchi omil sifatida o'rganilmoqda. So'nggi o'n yilliklardi ijtimoiy-madaniy muhit, madaniy o'zgarishlar, ijtimoiy-madaniy harakatni idrok etishda yangi bosqichga ko'tarildi. Turizm orqali umummadaniyat haqidagi tasavvurning yuksalishi turizm madaniyatini bilan hamohang holatda quyidagicha namoyon bo'ladi:

- shaxs, guruh va umumiyl jamiyatning dunyoqarashini kengaytirish;
- ma'lum ijtimoiy makonning madaniyatiga tegishli har qanday muhitni qabul qilish;
- insonning yashash hududi va qoidalarining o'zgarishi va ularning global ravishda kengayishi;

Turistik madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan estetik ehtiyoj ijtimoiy va semiotik haqiqat sifatida boshqa madaniyatga qiziqish va o'rganishni o'z ichiga oladi. Biroq, turizm madaniyatini belgilovchi omillari bo'lgan milliy qadriyatatlarga amal qilinmasa inson va jamiyat munosabatlariga salbiy ta'sir etishi mumkin. «Globallashuvga ziddiyatlilik, ko'pqirralilik, dinamika va kutilmagan xususiyatlar xosdir. Bir tomondan u inson taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar olib kelsa, ikkinchi tomondan, ayrim davlatlar va xalqlarni iqtisodiy va siyosiy jihatdan boshqa davlatlarga qaram qilib qo'yemoqda. Bunday holat siyosiy jihatdan globallashuvning ziddiyatlilik, bir vaqtida ijobjiy va salbiy, ko'p hududlarni qamrab oluvchi va lokal, birlashtiruvchi va bo'luvchi mohiyatga egaligi bilan bog'liq».[4:32] Bunday jarayonlarda turizm o'zining salbiy xususiyatlarini namoyon etishi, inson dunyoqarash darajasini pasaytirishi, inson ongini salbiy ma'lumotlar bilan to'ldirishi va ijtimoiy fikrni o'zgartirishi ham mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga qiziqishlari ma'lum bir tartibda, qonuniyatlarga muvofiq shakllanadi va ro'yobga chiqadi. Asosan tarbiyaviy xarakterga ega turizmning mazmuni, uning rivojlanish xususiyatlari va istiqbollarini inobatga olgan holda turizm pedagogikasida quyidagi ikkita bosh yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) turizm sohasi mutaxassisini tayyorlash, ta'limg-tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti;
- 2) turizm faoliyatida shaxsn rivojlantirish, ta'limg-tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti.

Turizm faoliyatining tarbiyaviy vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin: altruistik hayotiy pozitsiyani tarbiyalash; shaxs barqarorligi, shaxs mustaqilligi, qiyinchilikka bardosh berish qobiliyati, qat'iyatlilik va iroda mustahkamligi, ochiqlik, insonlarga hurmat. Ushbu maqsadni amalga oshirish talabalarning shaxsiy harakatlarini tahlil qilish, o'z-o'zini va o'rtoqlarining harakatlarini baholash, o'zini o'zi bilishga intilish qobiliyatini rivojlantirish jarayonida ro'y beradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga tayyorlashning pedagogik jarayondagi o'rnini uning bo'lajak mutaxassislarining ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi va ko'maklashishi bilan belgilanadi. Jumladan, shaxsn shakllantirish ma'nosida umuminsoniy qadriyatatlarni egallash, jahon madaniyati to'g'risida yaxlit va muqarrar tasavvurga ega bo'lish, ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishni nazarda tutadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan, turizm talabalarning ijtimoiy madaniyat, ayniqa, ijtimoiy muloqot va kommunikativlikni shakllantirishni taqozo qiladi.

Demak, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslarini psixologik ta'sir ko'rsatish bilan birga ta'limg-tarbiyaviy funksiyani bajarish orqali ularda turistik savodxonlik, turistik salohiyat, turistik faoliyk tushunchalari bilan bog'liq tushunchalar ekanligi namoyon bo'ldi. Shuningdek, turizm insonning o'zi yashab turgan joyini ma'lum muddatga tark etishi orqali sayohatlar, sarguzashtlar, davolanish, sport bilan shug'ullanish, tijorat maqsadlarida sayohat qilish, ziyorat qilish bilan izohlanishi asoslandi.

Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga tayyorlash orqali ularga psixologik ta'sir ko'rsatish va bu orqali ularda mazkur faoliyatga aksiologik munosabatni shakllantirish mumkin bo'ladi. Turizmning aksiologik xususiyati uning madaniyati va ijtimoiy-psixologik mazmunini belgilaydi. Ushbu faoliyatning madaniy va gedonistik, evdomonistik xarakteri bo'lajak o'qituvchining

jismoniy, estetik, intellektual sohasiga ijobiy ta'sir etadi. Bu esa turizm faoliyatini milliy qadriyatlarga rioya qilish bilan birga, shaxning jamiyatda ijtimoiy mavqeini belgilash omiliga aylantirmoqda.

Bugungi kunda butun dunyo xalqlari madaniyatlarini almashinuvni jarayonlari qadriyat sifatida e'tirof etib borilayotgan faoliyatning yangi shakllari bo'lgan ta'lum, turizm, shou-biznes, ommaviy madaniyat orqali yoyilmoqda. Jamiyatda bunday jarayonlarning jadallahishi industrial jamiyat rivojlanishi sabablarini keltirib chiqarishda muhim omil hisoblanadi.[6:113] Madaniyatlar almashinuvni davrida bo'lajak o'qituvchilarda "turistik savodxonlik"ni yuksalganligi sayohatlar davrida o'zining qat'iy pozisiyasida turishiga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqning turistik savodxonligi yuksakligi orqali progressiv jarayonlarning davlat tomonidan tartibga solib turilishi hamda qadriyatlarini saqlab qolish, tartibga solinishini ta'minlaydi. Turist sayohat davomida turli xalqlar madaniyati bilan tanishadi, tabiat go'zalligidan bahramand bo'ladi, shu sabab turistik savodxonlik shaxsda geografiya, biologiya, tibbiyat, tarix, geologiya, iqtisod, adabiyot, ma'naviyat va boshqa fanlar bo'yicha olgan bilim hamda malakalarini qo'llash imkonini yaratadi. Turizmga oid tadqiqotlardaziyorat turizmni bo'lajak o'qituvchini ruhiy-psixologik, estetik tarbiyalashdagi vazifasini alohida ta'kidlangan. Ziyorat diniy rasm-rusumlarni bajarish bilan birga amalga oshiradigan insonning turli muqaddas makonlarga sayohatidir. U kishining doimiy yashab turgan manzilidan uzoqlashgan holda sajda qilishga asoslangan diniy yoki dunyoviy muqaddas joylarga ziyorat qilishidir. Ziyorat estetik hissiyot orqali insonni ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishiga ko'maklashadi. Insonlar muqaddas joy va narsalar bilan tanishadilar, ulardan ma'naviy ozuqa oladilar, har xil hodisalarga guvoh bo'ladir. Bunday jarayonlar ziyoratchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va barkamollikka erishishgako'maklashadi.

Umuman olganda, «bo'lajak o'qituvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash murakkab va serqirra jarayon xisoblanib, insonning tafakkuri, dunyoqarashi bilan bog'liq jarayondir. Bu jarayonlarda estetika amaliy jihatdan o'zini turizm madaniyati orqali xam namoyon etishi mumkin».[7:22] Talabalar tabiatga sayohat qilishi natijasida go'zallikdan, ulug'vorlikdan bahramand bo'lishi bilan birga, uni nafosatli tarzda o'zlashtiradi. Turizmni faoliyatini baholashga qaratilgan bir qatorilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularni ma'lum turdag'i turizm uchun funksional muvofiqlikni hisobga olgan holdagi texnologik baho, farovonlik darajasini ko'rsatuvchi fiziologik baholash, estetik tarbiya ekanligini alohidata'kidlash zarur.

Bo'lajak o'qituvchilar faoliyatida turizmning estetiktarbiyahususiyatlari ma'lum ma'nodauningasosiy vazifalarini hambelgilab beradi. Anashuvazifalar quyidagilar:

Forig'lantirish - turizmning asosiy vazifasi. Sayohat inson qalbini tozalaydi – poklaydigan ma'naviy jarayon vazifasini o'taydi. Safar jarayoni insondon yomon axloqdan voz kechib xushfe'llik fazilatlarini shakillantiradi. Shu ma'noda bo'lajak o'qituvchilarni turistik faoliyatga yo'naltirish orqali ularning ruhiyatiga psixologik ta'sir ko'rsatish mumkin. Ya'ni ularni qalbini tozalashi, forig'lantirishi va ularning qalbiga ulug'vor tuyg'ularni joylashi mumkin.

## NATIJALAR

Tarbiyaviylik vazifasi. Tarbiyachi sifatida turizm inson hissiyotlariga ta'sir qiladi, estetik kechinmalar uyg'otadi va shu orqali ezgulikdan yovuzlikni farqlay bilish ko'nikmasini shakllantiradi. Turizm insonni dunyoqarashini o'sishiga, ma'naviy yetuklikka erishishda katta axamiyat kasb etadi. Demak, bo'lajak o'qituvchilar uchun turizmning tarbiyaviy funksiyasi ularda bilim va tajribalar ortib boradi, boshqa millat va jamiyatlarning urf-odatlarini va tarbiyaviy mezonlarini o'rganadi.

Huzurbaxshlik - turizmning ijtimoiy vazifasi. Turizmni estetik ehtiyoj ekanligini alohida aytish mumkin. Huzurbaxshlik vazifasi turizmning g'oyaviy-badiiy yaxlitligini ta'minlaydi, uni ajdoddan avlodga asrab yetkazadi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarni turistik faoliyatga yo'naltirish orqali ularda hayotga nisbatan kuchli motivasiya, ishga nisbatan intilish va huzurbaxshlikni namoyon qiladi.

Turizm talabalarning hissiy va intellektual qobiliyatları, ularning hayot to'g'risidagi tasavvurlari, nafaqat tabiiy zaruriyat, balki go'zallik qonunları asosida yaratilgan real narsa-hodisalar bilan birgalikda xulq-atvor shakllarini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Hozirgi davrda turizm talabalarning dunyoqarashini rivojlanish natijalarini aks ettirish shakli, balki jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni, ularning ahamiyati to'g'risidagi umumbashariy g'oyalarni aks ettirishning o'ziga hos o'zgarmas modelidir.

Texnogen sivilizasiya talabalarni jamiyatdan zerikishlariga kasbiy, ijtimoiy faoliyatini zaiflashishiga olib keladi. Barcha narsani muhayyo qiladigan turmush tarzi, bir xillik insonning xayotdan zerikishiga olib kelishi mumkin. Turistik sayohat bugungi kunda konsentrasiyalangan shahar hayotidan qochib, eskapizmning bir shakliga aylanadi. Belgilangan hayot tarziga ega bo'lgan shaharning maydoni, reklama xabarlarining kuchli konsentrasiyalangan oqimi, odamlar ongini axborot

## PEDAGOGIKA

bilan «to'ldirish» natijasida inson o'zini bunday shahar muhitidan aqliy siqib chiqarishga intiladi. Boshqa muhitda bo'lish nafaqat yangi narsalarni o'rganish insonning kundalik hayotidagi shahar makonidan sifat jihatidan farq qiladigan notanish makonni ko'rishga ehtiyoj sezadi. Sayyoarning ma'lum bir masofani bosib o'tishi muhim hissiy emotsiyal ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi, sayyo bu jarayonlarda estetik zavq orqali tarbiyalanadi. O'zbekiston turistik hududlarida Samarkand, Buxoro, Xiva Toshkent, Farg'ona shaharlarida sayyoohlар uchun o'zbek xalqining folklor tomoshalar namoyish etiladi. Bu nafaqat chet ellik sayyoohlarni qiziqtirish, shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish hamda qadriyatlarni saqlab qolishning muhim omilidir.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun turizm faoliyati madaniy qadriyatlarni tarqatishda, ularning tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirishda, har tomonlama rivojlangan insonni tarbiyalashda o'ziga xos tarbiyalovchi funksiyani bajaradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun turizm faoliyati quyidagi funksiyalarini bajaradi:

- turizm faoliyatining axborot berish (informativ) vazifasi. Har bir talaba o'zini qurshab turgan moddiy dunyo va ijtimoiy muhitni o'zlashtirib hamda anglab borish natijasida muayyan darajadagi bilim, tajriba, malaka va ko'nikmalarga ega bo'la boradi. Ularni boshqalarga, o'zidan keyin kelayotgan avlodlarga yetkazib berish ehtiyojiga ega bo'ladi.

- turizm faoliyati tartibga solish (regulyativ) vazifasi. Talabalarning o'zga jamiyat va boshqa xalqlarga nisbatan bo'lgan munosabatlari, uni mustahkamlovchi va tarqatuvchi o'zga huquq hamda mafkura, axloq, san'at hamda din ta'sirida tartibga solib turadi. Kishilarning o'zga atrof-muhitga nisbatan bo'lgan munosabatlari natijasida axloqiy, estetik, diniy, siyosiy va huquqiy me'yorlar vujudga keladi.[8:193]

- turizm faoliyatining baholash vazifasi. Ushbu funksiya tufayli talabalar o'zi mansub bo'lmagan sivilizatsiyalar tomonidan yaratilgan eng nodir, eng qimmatli madaniy boyliklar, ularni yaratish jarayonidagi barqarorlik, davomiylik va vorislik anglab yetadi.Bu esa boshqa davlatlarning madaniyatini o'rganish, boshqa hududlar va mamlakatlar o'rtaida madaniyatlararo muloqot vazifasini bajarish, madaniyat sohasidagi yutuqlarga ko'maklashish, kognitiv jarayonlarni faollashtirish hamda shaxsiy muloqotni uyg'unlashtirish demakdir.

- turizm faoliyatining gnoseologik funksiyasi. Turizm asosan ilmiy bilishning umumiyo xossalari, qonuniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Turizmning gnoseologik vazifasi shundan iboratki, inson sayohat qilish orqali joylarning nomlari, tarixiy kelib chiqishi, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganishi, xaritalarni o'qishi, chizgilar tayyorlashi, kundalik va sayohat esdaliklarini yozib borishi mumkin, hamda tarixiy arxitektura ob'ektlari, turli xalqlarning urf-odatlari, an'analari, marosimlari bo'yicha intellektual salohiyatini oshirib, bilim va tajribalarga ega bo'ladi. Insonni ijtimoiy-madaniy hayotga moslashish imkonini beradi.

Mohiyatiga ko'ra turizm insonga estetik-hissiy ta'sir ko'rsatishi orqali bilishda axborotlarning ko'payishiga qaratilgandir. Bu ma'noda turizmni gnoseologik amaliyat deb atash mumkin. Demak, bo'lajak o'qituvchilarni ham turistik faoliyatga yo'naltirish orqali ularda ijtimoiylashuvni tezlashtirishga hizmat qiladi.

## MUHOKAMA

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun turizm faoliyati ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan turizm, talabalarda empirik bilimlarni ilmiy bilimlarga aylanish jarayonini hosil qiladi. Ilmiy bilimlarni o'rganishning soddalashtirilgan modeli bilan tanishtirish zamонави turizmning asosiy vazifasidir. «Turizm bir paytning o'zida faoliyat shakli, milliy iqtisodiyot tarmog'i, rekreasiya ko'rinishi, dam olish usuli bo'lishi bilan bir qatorda san'at, ilm fan hamda biznes hisoblanadi». **Turizm faoliyatining barcha vazifalari bir-birlari bilan uzviy aloqadorlik va bog'lanishda rivojlanadi. Ular bir-birini to'ldiradi hamda boyitib boradi.** Turizm tizimining strukturasi deganda, sistemaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, uning yaxlitligi va barqarorligini ta'minlaydigan elementlarning birligi va ular o'rtaida barqaror aloqadorlik tushuniladi.«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi» ning qabul qilinishidan ko'zlangan asosiy muammo ham «ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtaida o'zaro hamkorlik hamda o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi, o'qituvchilarning o'quvchilarga zamонави bilim berishga imkon yaratadigan zamонави bilim, ko'nikma va malakalarga ega emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilganligi bilan izohlanadi».[9:19] Bu kamchiliklarni

bartaraf qilishda asosiy rolni o'qituvchi bajaradi. Demak, «bu muammolarning muvaffaqqiyatlari hal etilishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga bog'liq».[10]

Bugungi kunda bo'lajak kadrlarni zamonaviy faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari, zamonaviy kasb va bu bilan bog'liq ko'nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratish, uchinchi ming yillikka mos tafakkur va dunyoqarashga ega shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Davrimizda axborot texnologiyalari, turizm va boshqa yangi sohalar bilan bog'liq faoliyat turlari ommalashmoqda va yangicha ishslash va daromad topish mezonlari shakllanmoqda. Shuningdek, yangi ming yillikda shakllangan yangi faoliyat turlari mamlakatlar uchun keng imkoniyatlar, chegarasiz hizmatlar bozori, global faoliyat maydonini yaratishi bilan ham shaxs, ham davlat uchun yangi imkoniyatlarni tuhfa etmoqda. Buning uchun esa mamlakatda yangi sohalarni rivojlantishi uchun sharoit yaratish, an'anaviy sohalarni yangicha ishslash bosqichiga o'tkazish talab etilmoxda. Shuningdek, ta'lim tizimida ham bilim berish, kasb va hunarga tayyorlashning eskicha tizimi o'z ahamiyatini yo'qotib, yangicha mezonlar asosida bilim berish, faoliyatga yo'naltirish shakllanmoqda. Eskicha ta'lim berishda o'rganuvchiga axborotni tez va ko'p hajmda joylash muhim mezon bo'lgan bo'lsa, bugun o'rganuvchini kashf etish, uning ichki iqtidorini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, o'zini ko'rsatish uchun unga ta'sir ko'rsatish va bu orqali uni ma'lum faoliyatga yo'naltirish samarador tizim sifatida baholanmoqda. Shu bois ham tadqiqotlarda bo'lajak kadrlarni faoliyatga yo'naltirishning amaliyot bilan bog'liq yangi shakllarini yaratish, ularning emosional holatiga ta'sir o'tkazish orqali yo'naltirish vazifalari namoyon bo'lmoqda. Bu boradagi ishlarning bir ko'rinishi sifatida, bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi orqali turizm faoliyatiga yo'naltirish masalasi ham dolzarb masalalardan biridir. Chunki bugun uchun yangi bosqichga olib chiqilayotgan soha sifatida turizmni rivojlantirish va bu faoliyatga ko'plab yoshlarni jalb qilishning yangicha mexanizmlarini yaratish mazkur muammoning yechishda muhim odim bo'ladi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda barcha sohalarda bo'lgani singari turizm sohasida ham tub o'zgarishlarga yuz tutdi. Barcha davlatlar bilan viza tizimlarining yengillashtirilishi ko'plab sayyoohlarni o'zbek madaniyati, urf – odatlari bilan tanishtirishning eng samarali vositasiga aylandi. Bu borada Xalqaro Baxshilar festivali, Xalqaro Maqom festivali, Xalqaro Sharq taronalari festivali, Xalqaro Atlas festivali, Xalqaro turizm yarmarkalari, Xalqaro hunarmandchilik festivallari singari ko'plab tadbirlarning muntazam tashkil etib borilayotganligi o'zbek xalqining milliy-mental xususiyatlari, hamda qadriyatlarni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari fikricha, «hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu milliy turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob'yektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiatni, go'zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyyarat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyyarat qilishdan iborat bo'lgan «Kichik xaj» dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim. Bu sohani yanada rivojlantirish, talaba-yoshlarning aql-zakovoti, bilimi va iqtidoridan bu sohani rivojlantirishda foydalanish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Buning uchun esa bo'lajak kadrlarni bu sohaga qiziqtirish, turizm faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirish kerak bo'ladi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, turizm bo'yicha instruktor kadrlar tayyorlashda mustaqil g'oyalarini singdirish, ma'naviy-ma'rifiy madaniyat tarbiyasini ustun qo'yish, aholining sihat-salomatligini yaxshilash va o'quvchi yoshlarning jismoniy barkamolligini o'stirish yo'llari asos qilib olinishi lozim.

Instruktorlarning mavjesini oshirish, o'z ishlarida mas'uliyatlarini chuqur sezish va turizmga ommaviy ravishda hissa qo'shish maqsadida ularga maxsus guvohnomalar (sertifikat) va ko'krakka taqiladigan nishonlarni (znachok) tayyorlash, hamda ularga taqdim etish eng muhim tarbiyaviy jarayondir.

Umumiyl xulosa shundaki, mamlakatda turizm harakatini tashkil qilish va boshqarish davlat hamda jamoatchilik tizimlari tashkil etilib, ular aholining turizm bilan faol shug'ullanishlariga imkoniyatlar yaratmoqda.

PEDAGOGIKA

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Бзолтабаев М.Р. Тухлиев И.С. Сафаров Б.Ш. Абдурахимов С.А. Туризм назария ва амалиёт.-Т.,2018. –Б. 42.
2. Алимова М.Т. Туризм тизимига оид категорияларнинг илмий-назарий талқини ва таърифларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. № 4, июль-августъ, 2016. – Б.7.
3. Музаффаров А.М.Туризм – маданиятлараро түлоқотни ривожлантириш омили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.-Тошкент 2020. – Б. 17.
4. UNWTO – WYSE 2011, The Power of Youth Travel, Volume 2 Available [http://florianopoliscvb.com.br/MyFiles/amreports\\_vol2\\_thepowerofyouthtourism\\_eng\\_lw.pdf](http://florianopoliscvb.com.br/MyFiles/amreports_vol2_thepowerofyouthtourism_eng_lw.pdf) Accessed: 11-02-2014.
5. Юддашева Ф.Х. Ўзбекистон глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос зусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертация автореферати: – Тошкент, 2019. – Б. 14.